Ingliz hazillari adresat, ya'ni qabul qiluvchining hayotiy qadriyatlariga ta'sir qilmaydi, ya'ni hazil tinglovchini o'zgartirishga yo'naltirilmaydi. Tinglovchi bu hazil o'ziga tegishli ekanligini o'ylamaydi ham. O'zbek madaniyatida esa hazillar ko'proq adresatga yo'naltiriladi. Ingliz hazillarida ingliz milliy xarakterini ko'rsatib beruvchi realiyalari, miflar, presendent matnlar, etnomadaniy tabular, o'zining shaxsiy xududiga boshqalarni kiritmaydigan o'tkir hissiyotli irodali inson tasviri, irimlar mavjud. Shuning uchun ham tinglovchi o'zini hazillar maydoniga tajriba sifatida qo'yilishini tarafdori emas. Ular hazilni tahdid, qo'rqitish sifatida qabul qilmaydilar. Ular hazilni ahamiyatsiz deb qabul qiladilar, vaziyatni ijobiy tushunadilar, so'zlovchining hazillari o'sha qiziq voqeani tinglovchi bilan baham ko'rish deb qabul qiladilar va tinglovchini kuldirolsa, bu uning yutug'i va hazilning qiymatini ko'rsatadi.

Ingliz hazillarida xissiyotlarni tiya bilish, qattiq kulmaslik, individual mustaqillik (biz emas, men), insonning o'z taqdirida o'zi faol ekanligini, hamda o'lim bilan bog'liq muqaddas diniy g'oyalar va dunyoqarashni qadrsizlanishini kuzatish mumkin. Ingliz hazillarida asosiy mavzular ish, oila, bayramlar, hordiq chiqarish, sevimli hayvonlari, haydovchilik, harid, tarix, musiqa, sport, xobbi, siyosat, Krismas, ya'ni yangi yil bayrami va yangiliklar kanallari ob'yet bo'ladi. Ular uyushtirilgan turli kechalarda, turli sms va shunga o'hshash xabarlarda, o'z nutqlarida va tungi sayrlarda do'stlari, kollegalari va oila a'zolari bilan hazillashishni xush ko'radilar[1].

Ingliz halqida butunjahon hazil kuni alohida odat sifatida shakllangan. [2] Aprel ahmoqlar kuni har yili 1 aprelda o'tkaziladigan odat bo'lib, yolg'on va hazillardan iborat bo'ladi. Bu odat shunchalik keng qabul qilinganki, hatto rasmiy ommaviy axborot vositalari, gazeta, radio, televideniya va hatto, internet vebsaytlarida ham bu odat o'tkaziladi. Ommaviy axbort vositalarida tarqatilgan hazil xabarlari ertasi kunigina rost yoki yolg'onligi fosh bo'ladi. Masalan, Angliyada 1857 yilda London shahrida sotilga ushbu chipta bilan bog'liq hech qanday namoyish ko'rsatilmagan.

TOWER OF LONDON
Please to Admit the Bearer and Friend,
TO VIEW THE
ANNUAL CEREMONY
OF WASHING THE LIONS,
On WEDNESDAY, APRIL 1st, 1857.
N.B. It is requested that no Gratuity will be given to the Attendants.
*** Visitors admitted only at the White Gate.
No.
Percy B. Greville.

An 1857 ticket to "Washing the Lions" at the Tower of London in London. No such event ever took place.

[1] H. Murr., A.Laff. The great big British joke book. 2013, p139
[2] From Wikipedia, the free encyclopedia// https://en.wikipedia.org/wiki/April_Fools%27_Day

Ushbu kunning kelib chiqishi noma'lum bo'lsa-da, bu haqda ko'plab nazariyalar mavjud. 1 aprel va ahmoqlik o'rtasidagi bog'liqlik J. Choserning Kenterberi ertaklarida (1392) topilgan. Mart oyi boshlanganidan beri 32 kun, ya'ni mart oyining boshidan 32 kun, ya'ni 1 aprelda Chanteklerning mag'rur xo'rozi tulki tomonidan aldangan. Biroq Choser 1 aprelni nazarda tutganmi yoki yo'qmi, bu aniq emas. Zamonaviy olimlar saqlanib qolgan qo'lyozmalarda nusha ko'chirishda xatolar borligiga ishonishadi.

Angliyada ushbu bayram uzoq vaqtlardan beri saqlanib kelayotgan odatlardan sanaladi. 1980 yilda BBS kanali Big Ben soatining sirti raqamlashtirilishini e'lon qiladi va bunda kim birinchi bo'lib bu haqida habar bersa, o'sha soatning strelkasini yutib olishi mumkin bo'ladi.

Ushbu yolg'on xabarlarga ishongan odam aprel ahmoqi degan nomni oladi. Angliyada aprel ahmoqi bo'lgan odamga qarab Aprel ahmoqi deb baqirish odat tusiga kirgan. 1950-yillarda folklorshunos Iona va Piter Opilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Angliyada va an'analari Britaniyadan kelib chiqqan mamlakatlarda u hali ham amalda qo'llanilayotgani, uning kun davomidagi vaqti kunning tush ('Noon' means 'midday' or **12 o'clock** during the day. 'Midnight' refers to 12 o'clock during the night) vaqtigacha davom etadi. Bu vaqtdan so'ng qilinadigan hazillarda hazillashayotgan kishining o'zi aprel ahmog'i sanaladi. Ahmoq odamning bir nechta sleng-laqablari bor. Jumladan, "noodle" (a stupid person), "gob" ('Gob 'is the word for mouth, it belongs to slang language, it is a bit rude to use the word, like' Shut your gob'), "gobby" (talking too much, or saying things that should not be said) yoki "noddy" (a foolish person.) kabilardir.

Aprel hazil kuni dunyo amaliyotida juda bahsli masalalarni keltirib chiqarmoqda. Bu ajoyib hazilmi yoki dahshatli yolg'onmi savolini tug'dirmoqda. Bu yolg'onning ijobiy taraflari shunda ko'rinadiki, bu hazil inson salomatligi uchun foydalidir, ya'ni kulgu stressni yengillashtiradi, yurakni kuchlanishini kamaytiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hazil kuni uchun maxsus hazillarni ishlab chiqaruvchi turli tashkilotlar 2020 yilning mart oyidan boshlab o'z faoliyatlarini vaqtincha to'htatdilar. Chunki pandemiya kovid 19 pandemiyasi hali o'z yakuniga

yetgani yo‘q. Qo‘pol hazillar orqali insonlarning hazili to‘g‘ri tushunilib, uning ortida rost, chin fikr yotishi mumkinligini anglatuvchi hazillar insonlarga zarar yetkazib qo‘yishi mumkinligi taxmin qilindi. Masalan, Google kompaniyasi har yili o‘tkaziladigan “mashhur bo‘lmagan aprel hazillari” an’anasini davom ettirmaslikka qaror qildi. Taylandda esa ushbu kunda tarqatilgan yolg‘on habarlar uchun 5 yillik qamoq jazosi joriy qilindi.

Yevropa mamlakatlarida Aprel hazil kuni shu darajada taraqqiy etganki, ushbu kun munosabati bilan turli kitoblar, teleshoular, televizion epizodlar yaratilgan. Masalan, Bryce Courtenay's novel *April Fool's Day* (1993) kabi.

Ingliz lingvomadaniyatida aprel hazillarida aytiladigan hazillar mazmunida jabrlanuvchining xijolatga qo‘yish, sarosimaga solish yoki noqulaylik his qilishiga sabab bo‘ladigan zararli hazil qilishdir. Hazil paytida jabrlanuvchi pul yoki qimmatbaho narsalarini berish orqali, hazil yoki hazil emasligini bilib olish imkoniyati mavjud va bunga ruxsat beriladi ham. Ammo hazilga oid bo‘lmagan harakatlar sodir etilsa, zo‘ravonlik va firibgarlik sifatida baholanadi.

Tarixchilarning taxminiga ko‘ra, aprel hazil kuni 1582 yilda Fransiya grigoryan taqvimiga o‘tganda ushbu kun bahorgi teng kunlik munosabati bilan chiqarilgan. Yangi yilning boshlanishi 1-yanvar emas, 1 aprel deb ishonilgan. Matr oyining so‘nggi haftasidan 1-aprelgacha nishonlash davom etgan xabarlarni yolg‘on xabarlar sifatida tarqalgan va bu hazil va yolg‘onga aylanishini ta’minlagan. Bu vaqtda bu xabarlarga ishongan insonlarni aprel balig‘i, ya’ni oson tutilgan baliq, ya’ni ishonuvchan odam sifatida baholagan.

Aprel hazil kuni butun Britaniyada tarqaldi. Shotlandiyada bu an’ana ikki kunlik tadbirga aylandi, kakkuni (gowk) ovlash deb nomlanib, ushbu kunda odamlarni soxta ishlarga jo‘natishdi. Shundan beri kakku ahmoqlik ramzi bo‘lib qoldi. Ahmoq bo‘lgan kishi ortiga soxta dum yopishtirish yoki orqa tomonida “meni teping” (kick me) yozuvini ilish rasm bo‘ldi.

Demak, bu hodisalarga tayanib shuni aytish mumkinki, ingliz lingvomadaniy xulqida rasmiy darajadagi hazillar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Jiltsova O.Yu. Шутка как малый речевой жанр. ГБОУ ВПО Саратовский ГМУ им. В.И. Раумовсково Минздрава России, кафедра русской и классической филологии, 1998.
2. Ю. В. Шурина Шутка как речевой жанр. Дисс. Канд. Наук по фил.1997
3. А. В. Карасик. Лингвокультурные характеристики английсково юмора.дисс. кандидат филологических наук, 2007

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI HAMDA UNING HUQUQIY JIHATLARI

Atoyev Fazliddin Sayfiddinovich
Buxoro muhandislik texnologiya instituti Axborot kommunikatsiya kafedrasi o'qituvchisi

Orifov Muxammadamin Kotibjon o'g'li
*Buxoro muhandislik texnologiya instituti Axborot texnologiyalari va tizimlari yo'nalishi talabasi**ATT***

Muhammadov Shohruh Samandar o'g'li
Buxoro muhandislik texnologiya instituti Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini loyihalashtirish eksputatsiyasi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada elektron ta'lim resuruslarini yaratish texnologiyalari va ularning o'quv jarayonlarini takomillashtirishdagi tadbig'i keltirilgan. O'quv materialini kamchiliklarini tezda tuzatish, zarur o'zgartirishlar kiritish imkonining borligi, materialni kompyuter yordamida turli ko'rinishda tayyorlash mumkinligi, rangli tasvirlardan foydalanish, ularni jonlantirish va harakatlantirish imkoniyatini yaratishda elektron taqdimotning afzalligi yoritilgan

Kalit so'zlar: Elektron o'qitish, masofadan o'qitish, aralash o'rganish, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'lim vositalari, zamonaviy o'qitish usullari.

Аннотация. В статье представлены технологии создания электронных образовательных ресурсов и их применение в совершенствовании образовательных процессов. Выделено преимущество электронной презентации в создании возможности быстрого исправления недостатков учебного материала, возможности внесения необходимых изменений, подготовки материала различными способами с помощью компьютера, использования цветных изображений, их анимации и перемещения.

Ключевые слова: электронное обучение, дистанционное обучение, смешанное обучение, информационные технологии, современные средства обучения, современные методы обучения.

Annotation. The article describes the technologies of creating electronic educational resources and their use in improving educational processes. The advantage of the electronic presentation is highlighted in the possibility of quickly correcting the shortcomings of the educational material, making the necessary changes, preparing the material in various ways with the help of a computer, using color images, animating and copying them**.**

Key words: electronic education, distance education, mixed education, information technology, modern teaching tools, modern teaching methods.

Kirish. Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnikalardan foydalanish borasida pedagoglar uchun o‘quv-trening vazifasini o‘tovchi elektron axborot-ta'lim resurslari – dasturlar yaratilgan. Bu o‘qituvchilarning darsni sifatli tashkil etishi, malakasini oshirishga xizmat qiladi. Multimedia dasturlarini yaratish, rivojlantirish, ommalashtirish borasidagi ishlar o‘z samarasini bermoqda. Ta'lim maskanlarida o‘quvchilar to‘g‘ridan to‘g‘ri internetda yoki sinfxonalarda disklar va audiodisklar yordamida fanga oid ma'lumotlar bilan tanishmoqda. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan bemalol foydalanib, o‘z salohiyati bilan olam ahlini lol qoldirayotgan yoshlarimiz safi kengaymoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda yoshlar uchun keng shart-sharoitlar, qulay imkoniyatlar yaratilayotganining samarasidir.

Barchamizga ma`lumki, XXI asr – globallashuv davri, texnika asri deyiladi. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o‘tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o‘zini mas`ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism : Hozirgi vaqtda ta'limni axborotlashtirish sohasida asosiy e'tibor samarali elektron ta'lim resurslarini (EER) yaratish muammolariga qaratilgan. EERni rivojlantirishning dolzarbligi yangi kiritilgan fanlarga oid to‘liq materiallarning etishmasligi yoki yo‘qligi, masofadan turib o‘qitish usullarini o‘quv jarayoniga kiritish, o‘qituvchilar materiallarini tizimlashtirish va umumlashtirish, o‘quv dasturlari uchun materiallarni moslashtirish zarurati va ushbu ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar kontingenti bilan bog‘liq. Shuningdek, mavjud o‘quv materiallarini doimiy ravishda ishlab chiqish va takomillashtirish, ularni talabalar uchun imkon qadar qulayroq qilish muhimdir. Elektron o‘quv qo‘llanmalari, albatta, qog‘ozli nusxalar emas, ular tarkibida o‘quv materialida harakat qilish uchun yordamchi vositalar, tezaurus, qidiruv vositalari, o‘quv materialini o‘zlashtirilishini tekshirish uchun savollar va vazifalar, shuningdek, o‘quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun yordamchi materiallar, shu jumladan animatsiya ketma-ketligi va faol tarkib mavjud bo‘lishi kerak.

Dars jarayonida kompyuterdan foydalanish o‘qituvchi va talabalarga, interaktiv o‘quv qo‘llanmalari bilan bog‘liq bo‘lgan yangidan-yangi o‘ziga xos qulayliklar yaratadi. O‘qituvchi tomonidan yaratiladigan interaktiv o‘quv qo‘llanmalari uchun zamonaviy dasturlash tillarini bilgan holda, ularni talabalar tomonidan qiziqish bilan qabul qilinishiga erishimiz zarur. Kompyuterni boshqa o‘qitish vositalari masalan proyektor, elektron doskalar bilan operativ qo‘shilishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanib ma'lumot berish xajmini oshiradi va bu bilan o‘qituvchi uchun dars vaqtidan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi .

Bugungi kunda zamonaviy dasturlash tillari ya'ni, Delphi, Mathlab, MathCad, Maple, Mathematica, Cilarning imkoniyatlaridan foydalanish dars jarayonlarini sifatli tashkil qiladi. Natijada dars samaradorligi ortadi va o‘quvchilarning qiziqishi, hamda munosabati o‘zgaradi

Ta'limda o'qitishning sifatini oshirish so'zsiz yangi o'qitish usullaridan qanday foydalanishga bog'liq bo'lmoqda. Yangi o'qitish usullarida talaba doimiy ravishda izlanish va xarakatda bo'lishi lozim, ya'ni berilgan ma'lumotlarni olishi, qayta ishlashi va olgan bilimlarni aniq masalalar yechishda qo'llashi lozim. O'qitishning ma'ruza, amaliyot, laboratoriya va mustaqil ta'lim shakllarida axborot texnologiyalarning qo'llanilishi tezlik bilan o'z samarasini beradi. Masalan laboratoriya darsida virtual stendlarning qo'llanilishining o'zi albatta mashg'ulotning sifatli tashkil etilishiga asos bo'ladi.

Kompyuter va dasturiy maxsulotlarning beqiyos darajada rivojlanishi axborot texnologiyani ta'limda qo'llashga keng imkoniyatlar ochib bermoqda. O'quv materiallarini multimedia tizimlari ko'rinishida tayyorlash va ularni kompyuter tarmoqlari va uzatish vositalari orqali ko'pchilikka taqdim etish mumkin. Kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi barcha turdagi o'qitish shakllarining o'quv materiallarini qaytadan ko'rib chiqishni talab etadi. Xar bir o'qitish shakliga mos ravishda multimediali elektron o'quv materiallari tayyorlash kerak bo'ladi .

Odatda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida axborot texnologiya vositalaridan kam foydalaniladi. Lekin o'qitish texnologiyalari sohasi tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, aynan ushbu o'qitish shakllarida o'qitish sifatini oshirishning zaxiralari yashirinib yotibdi. Gap shundaki, an'anaviy o'qitish usullarida guruhni faol ishlashga jalb etish va ularning o'zlashtirishini nazorat qilish hamma vaqt ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. O'quv materialining elektron shaklda bo'lishi, matnli, grafikli, ovozli, animatsion materiallarni kompyuter ekranida ko'rish, o'rganish, o'zgartirish kiritish va yozib olib yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

O'quv materialining elektron shaklini mavjud lokal tarmoqga jamlansa, ular orqali topshiriqlarni korporativ bo'lib yechish va axborot almashish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Kompyuter sinfidagi kompyuter va dasturiy vositalar talabalarga o'rganilayotgan mavzuga individual yondashish, o'z fikrini shakllantirish va faollikni oshirish imkonini beradi .

O'qituvchi server kompyuter orqali xar bir talabaning o'zlashtirish jarayoni va berilgan topshiriqlarning qanday bajarilganligini nazorat qilish va qayd etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yagona axborot gipermaydonidan birgalikda foydalanish amaliy bilimni olishda o'qituvchi va talaba o'rtasida ijodiy hamkorlikni ta'minlaydi. Bunday o'qitishni tashkil etishda o'qituvchidan elektron resurslarni yaratish dasturlari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlikni hamda auditoriyada foydalanuvchi interfeysini ta'minlovchi texnik vositalarning bo'lishligi talab etiladi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, bog'lik) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plamdir.

Elektron ta'lim resurslaridan o'quv jarayonida to'liq foydalanish natijasida quyidagilarga erishiladi:

1) xotiraga qabul qiladilar, anglaydilar, yig'adilar, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydilar;

2) bevosita o'qituvchi hamkorligida tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, namuna bo'yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;

3) muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijaga erishishning yo'l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydilar.

Zamonaviy dasturlash vositalarida tayyorlangan elektron ta'lim resurslarining sifati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

O'qitishning interfaol usullarini bilish kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan va biladigan, o'ylayotgan narsalarini tushuntirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Elektron ta'lim resurslari qo'llanilgan darslarda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlik o'quvchini dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga olib keladi, fanga bo'lgan qiziqishlari doimiyligini ta'minlaydi

Ta'lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Bunda albatta, ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, kompyuter, multimedia, internet, masofali o'qitish, yagona axborot muhiti va axborot kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining yaqqol samarasini bermoqda.

Bugungi kun yoshlari uchun yaratiladigan elektron ta'lim resurslariga talab ham ancha murakkab. Ta'lim resurslari har tomonlama mukammal, zamonaviy, yoshlar e'tiborini tortadigan va yangiliklar bilan boyita oladigan bo'lishi kerak. Shuning uchun yangi dasturlash tillaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maksad, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillarida namoyon bo'ladi. Zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanib yaratilgan elektron ta'lim resurslarini tarmokda joylashtirish orkali, ukuvchilarni bilim boyligi oshiriladi, esda kolishi kuchayadi, darslar qiziqarli tashkil etiladi, tafakkurni rivojlantiradi samaradorligini oshiradi. dunyoqarashni kengaytiradi, o'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi, o'z shaxsiy fikrini bayon qilish va uni himoya qilishga o'rgatadi.

Fan bo'yicha tayyorlangan elektron ta'lim resurslari talabalar bilimini takomillashtirishda, talabalarni baholashda, o'quv jarayonini boshqarishda keng qo'llaniladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni tako- millashtirish,

talabalarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid bo‘lib, ularda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining didaktik ta’minotini ishlab chiqish va joriy etishga kam e’tibor qaratilgan. Bu esa, oliy ta’lim muassasalari talabalarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish masalasini atroflicha tadqiq etishni taqozo etadi.

Ma’lumotlar bazasidan foydalanish zarurati tug‘ilganda, Microsoft Excel kabi ma’lumotlar bazasi yordamga chaqiriladi. Elektron darslik yohud o‘quv qo‘llanma uchun illyustrativ materiallarni yaratishda, shuningdek, skanerlar, videoushlash va yig‘ish platalari, tovush platalari kabi apparatli vositalardan foydalaniladi. Matnli protsessorlar va maxsus dasturlar yordamida elektron darsliklarni yaratishda, o‘quvchida undan qisman foydalana olmaslik bilan bog‘liq muammolar tugilishi ham tabiiy. Foydalanuvchi darslikni yaratish dasturiga ega bo‘lishi zarur bo‘ladi. Shuningdek, darslikni INTERNET tarmog‘iga joylashtirish bilan bog‘liq muammo ham tug‘iladi. HTML gipermatn xujjatlaridan foydalanishda bunday muammolar tug‘ilmaydi, chunki HTML-INTERNET tizimining gipermatnli tili hisoblanadi va HTML xujjatlarini o‘qish dasturi Microsoft Windows operatsion tizimi tarkibiga kiradi. Shuni ta’kidlash joizki, bunda elektron darslikning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi.

Elektron o‘quv nashrlari ichida Internetda joylashtirilgan tarmoq resursalari ko‘proq tarqalmoqda.Tarixiy mavzudagi Internet resurslarining ham soni ortmoqda.Asta-sekin tarixiy resurslarning berilganlar bazalari, maxsus katalog va qidiruv tizimlari vujudga keldi. Tarmoq ilmiy-ta’lim resurslari bilan ishlash o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘lib, tarmoqda ,brauzerlar bilan ishlash malakasini, Internetda axborot izlash , uni qayta ishlash va saqlash usullari bilan tanish bo‘lishni talab etadi.Internetda ishlamoqchi bo‘lgan tarixchi oldida turadigan birinchi muammo – axborot qidirish muammosidir. Keyingi muammo – topilgan resurslarning ta’lim maqsadlarida foydalanishga yaroqliligini aniqlashdan iborat.

Davlat ta’lim standartlariga mos kelish nuqtai nazaridan tekshirilmaydigan ko‘plab tarixiy resurslar mavjuddir. Ixtiyoriy kursni o‘rganish jarayonida Internetdan olingan o‘quv qo‘lanmasining ta’lim muassasasi o‘quv dasturiga mos kelmasligi muammosi vujudga kelishi mumkin.Internetdan olinadigan ma’lumotlarning nihoyatda turli-tuman xarakterda ekanligi ularni qayta ishlash uchun kerak bo‘ladigan dasturiy va texnik vositalarni tanlash muammosi lelib chiqadi.Matnli, grafik, audio-video axborotlarni tasvirlashning ko‘plab formatlari mavjud.Ushbu muammolarni hal etishning ba’zi yo‘llarini ko‘rib o‘tamiz.

Nimani qidirish kerak? – bu savolga javob berishda o‘z ta’lim faoliyatida tarixchi o‘quv rejasiga murojaat etadi. Shunindek strukturasi, taqdim etilish tipi, maqsadi va bayon etilash shakli jihatidan farq qiluvchi axborot xarakterini aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qanday izlash kerak bo‘ladi? – zaruriy axborotning Internetdagi joyini toppish uchun ushbu axborot joylashtirilgan resurslarni qidirish lozim bo‘ladi. Bunday ma’lumotlarni qidiruv tizimlarining berilganlar bazalarida, qidiruv

kataloglaridan topish mumkin.Asosiy rus tilidagi qidiruv tizimlariga rambler, yandex, aport, google‘ lar kiradi.Bunday tizimlarda qidiruv matn ko‘rinishida ifodalangan so‘rovlar asosida amalga oshiriladi. Amalda bir nechta qidiruv tizimlarinidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki qidiruv tizimlarining berilganlar bazalari bir-biridan farq qiladi.Maxsus tarixiy kataloglar biror qidiruv, axborot yoki ilmiy-tadqiqot resursi tarkibida yoki mustaqil resurs sifatida mavjud bo‘ladi. Qidiruv tizimlaridan farqli ravishda kataloglar foydalanuvchilar umidlarni ko‘proq darajada oqlaydilar, chunki qidiruv oldindan tanlangan mavzu bo‘yicha materiallar ichida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron shaklda tayyorlangan o‘quv materiallari o‘qitishning barcha shakllarida yuqori sifat va samarani kafolatlaydi. Taklif etilayotgan elektron axborot ta'lim resurslari ta'lim oluvchilarga o‘rganilayotgan ob'ekt ustida ijodiy izlanish olib borishga, uni o‘zlashtirish jarayonida yuzaga keluvchi o‘zaro bog‘liqliklarni tizimli o‘rganishga yordam beradi. Mazkur muhit ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga jamoa bo‘lib ishlash imkoniyatini yaratadi va elektron axborot ta'lim resursi o‘quv jarayoniga moslashuvchan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атоев Ф. С. TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH, O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI: Atoev Fazliddin Sayfiddinovich Buxoro muhandislik-texnologiya instituti. axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrasi assistenti //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 127-133.
2. ATOYEV F. ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI ORQALI TALABALARNING O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI //EDAGOGIK AHORAT. – С. 226.
3. Azamat Sunnatula Murtazoev by son, & Oybek daughter Zarina Latipova. (2022). FROM THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF DIDACTIC EDUCATION OPTIONS . World Scientific Research Journal, 4(2), 34–40.
4. 5.Муртазоев А. С. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 54-58.
5. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR “SMART CLASS” //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – С. 18-21.
6. Sunnatula o‘gli M. A. et al. TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI //World scientific research journal. – 2022. – Т. 4. – №. 2. – С. 28-33.
7. Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. *Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences*, *2*(6), 73-82.

FRANSUZCHA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA « *IL FAUT* » IBORASINING STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna
SamDCHTI dotsenti

Mirzayeva Shohsanam Ahror qizi
SamDCHTI magistranti

Annotatsiya. Maqola " Fransuzcha frazeologik birliklarda " *il faut* "iborasining xususiyatlari " to'g'risida bo'lib, bu mavzu ko'pgina tilshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Aynan fransuz tilida xalq maqollari yoki paremiologik birliklarda bu ibora juda keng qo'llaniladi. Bu jarayon esa fransuz tilining naqadar chiroyli va boy til ekanligini ko'rsatadi. Biz bu iborani chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, « *il faut* » iborasining o'rni juda muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: il faut iborasi, infinitif , nom, subordonne, adverbe so'z turkumlari bilan berilishi.

Аннотатсия. В статье речь идет об особенностях словосочетания il faut во французских фразеологизмах, и эта тема анализировалась многими лингвистами. Именно во французском языке это выражение очень широко используется в народных пословицах или паремиологических единицах. Этот процесс показывает, насколько красив и богат французский язык. Если мы проанализируем эту фразу более глубоко, то увидим, что место фразы «il faut» очень важно.

Ключевые слова. словосочетание il faut, инфинитив, существительное, придаточное предложение, наречие.

Annotation. The article deals with the features of the phrase il faut in French phraseological units, and this topic has been analyzed by many linguists. It is in French that this expression is very widely used in folk proverbs or paremiological units. This process shows how beautiful and rich the French language is. If we analyze this phrase more deeply, we will see that the place of the phrase "il faut" is very important.

Key words: phrase il faut, infinitive, noun, subordonne, adverbe.

Kirish. Biz bilamizki fransuz tili nafaqat paremiologik birliklarga boy , balki xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan biri hisoblangan maqol boshqa janrlardan o'zining qisqa, lo'nda, obrazli va chuqur mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Maqollar orqali har bir xalqning o'ziga xos qadimiy va boy manavyati namoyon bo'ladi.Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil bo'lib , mazmun jihatdan o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin.Maqollar uchun obyekt sifatida shaxslar, narsa-buyumlar va shu bilan birga , hayvonlar ham olinadi.Maqollar, asosan, didaktik xarakterga ega bo'lib, Bahodir Sarimsoqning takidlashicha , "Maqollar ham o'z ham ko'chma ma'noda

qo'llana olish imkoniyatiga egadir.Bu xususiyat maqollarning tematik doirasini, qo'llanilish darajasini kengaytiradi". (1)

ASOSIY QISM. Ushbu maqola ishimizda biz fransuzcha paremiologik birliklar yoki iboralarning struktura jihatdan ko'rib chiqamiz. Masalan il faut birikmasi bilan keladigan maqollar tahliliga etibor qaratadigan bo'lsak, biz bu iborani bir nechta struktura yoki tahlillarga bo'lib o'rganib chiqamiz. Biz bu maqola taxliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak *IL FAUT* iborasi bilan keladigan maqollarda *il faut* abarodi infinitif (infinitive) , ot (nom) ergash gap (subordonnee), ravish (adverbe)lar bilan kelishi mumkin. Ya'ni bularni misollar bilan ko'rib chiqamiz.

Shu bilan bir qatorda, fransuz tili gramatikasida *il faut*+infinitive shakli mavjud.Paremiologik birliklar tarkibida ham huddi shu qoidaga rioya qilinadi.Bunday parameologik birliklarga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.Biz bilamizki, fransuz tilida *il faut* iborali maqollarda qatnashgan infinitive birliklari , pameologik birliklarda ham I, II, III guruh batter, se mefier, donner, cuire, laver, prendre, attendre, etre, esperer, manger, souffrir fellariga mansub quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

- **Il faut attendre** la mort pour bien juger la vie.
- **Il faut prendre** la belle au bond.
- Il faut laver son linge soile en familie.
- Il faut cuire le pain tant que le four est chaud.
- Il faut donner a son filleul un bon morceau du pain de la marraine.
- Il faut louer la mer et se tenir en terre.
- Il faut attendre la mort pour bien juger la vie.

Ushbu misollardan biz III guruh feli bilan kelgan« **Il faut attendre », « Il faut prendre »,** I guruh feli bilan kelgan « Il faut laver », « Il faut donner », « Il faut louer » iboralarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Biz bu tahlilimiz natijasida shuni xulosa qilib aytadigan bo'lsak fransuz tili maqollarida uchraydigan fellardan eng ko'p ishlatiladigan fel guruhlari bular birinchi guruh fellari deb olsak aslo adashmaymiz.

Ikkinchi uchraydigan struktura bu ***IL FAUT+NOM*** ya'ni otlarda uchrashi

- A un cheval hargneux **il faut** une etable a part.
- Quand le pain est mouille, il faut le boire.
- Les plaisirs sont comme les parfums , il faut les eloigner pour les mieux sentir encore.
- Il faut une tete pleine et une ame forte pour supporter la solitude.
- A un cheval hargneux il faut une etable a part.
- il faut le voir pour le croire
- il faut quarante-sept muscles pour froncer les sourcils et seulement treize pour sourire
- il faut que jeunesse se passe

UCHINCHI UCHRAYDIGAN STRUKTURA BU ***IL FAUT + SUBORDONNEE*** YA'NI ERGASH GAPLARDA UCHRASHI.

- il faut qu'une porte soit ouverte ou fermee.
- Battre le fer **il faut-tandis qu'il** est bien chaud.
- il faut que jeunesse se passe

IL FAUT +ADVERBE

- Il fait jamais mauvais temps pour s'en retourner au pays.
- Il fait bon avoir des biens, on en sauve toujours quelques pieces.

Fransuz tilidagi maqollar tarkibida uchraydigan *IL FAUT* abarodi tahlili natijasida biz shuni xulosa qilib to'rt xil strukturada namayon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bular quyidagilarni tashkil qiladi.Bularga *Il faut+ infinitive, il faut+nom, il faut+subordonnee, il faut+adverbe*lar misol bo'la oladi.

Biz fransuz tilida *Il faut* strukturasini paremiologik birliklarda joylashish o'rniga qarab tahlil qiladigan bo'lsak, bunday birliklar tarkibida kelganda uch xil shaklida namoyon bo'ladi.Bularga Prepositif, Interpositif va Postpositif lar kiradi

1.Prepositif bu- yani pre(old) positif(ijobiy) degan manoda kelib *il faut* oborodli maqollar yoki paremiologik birliklarning old qismida kelishiga aytiladi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

- Il faut tourner sept fois sa langue dans sa bouche avant de parler.
- il faut laver son linge sale en famille.
- il faut qu'une porte soit ouverte ou fermee.
- il faut prendre le taureau par les cornes.
- Il faut louer la mer et se tenir en terre.
- il faut batter le fer pendant qu'il est chaud.
- il faut etre enclume ou marteau.
- il faut prendre son mal en patience.
- il faut esperer puisqu'il faut vivre.

2.Interpositif bu- *il faut* oborodli maqollar yoki paremiologik birliklarning o'rta qismida kelishiga aytiladi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

- A un cheval hargneux il faut une etable a part.
- Les plaisirs sont comme les parfums , il faut les eloigner pour les mieux sentir encore.
- Battre le fer **il faut**-tandis qu'il est bien chaud.

3.Postpositif bu-- *il faut* oborodli maqollar yoki paremiologik birliklarning oxirgi qismida kelishiga aytiladi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

- Quand le pain est mouille, il faut le boire.

Fransuz tilidagi maqollar tarkibida kelgan *IL FAUT* oborodli iboralar joylashish o'rniga ko'ra Prepositifda ko'proq, Interpositifda qisman kamroq, Postpositifda eng kam uchraydi.

Fransuz tilida il faut iborasining gaplar tarkibida kelishini tahlil qiladigan bo'lsak biz gaplarni quyidagi nuqtai nazardan tasnif qilamiz.

1.Tarkibidagi predikativ birlikning miqdoriga ko'ra, bunda sodda gap, qo'shma gap farqlanadi.

2. Kommunikativ vazifasiga ko'ra, bunda gaplar 3 turga bo'linadi.darak gap, so'roq gap, va undov gap (2).

O'zbek tilidan farqli o'laroq fransuz tilida vositali va vositasiz to'ldiruvchilar ot bilan ifodalanganda kesimdan keyin o'rnashadi.vositasiz to'ldiruvchidan oldin predlog ishlatilmaydi, ammo vositali to'ldiruvchidan oldin predlog ishtirok etadi.

Sodda gap tarkibida kesimlik shakillariga ega bitta kesim bo'ladi buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin (3).

- il faut prendre le taureau par les cornes.
- il fait faire vie qui dure.
- il faut avoir deux cordes a son arc-yetti o'lchab bir kes yoki tanganing ikki tomonini ham ko'rish mumkin.
- il faut laver son linge sale en famille. oilaviy sir tashqariga chiqmaydi.
- il faut qu'une porte soit ouverte ou fermee-ochiq yoki yopiq bo'lishidan qatiy nazar eshik bo'lishi kerak.

Qo'shma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq kesim bo'ladi buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

- Battre le fer **il faut-tandis qu'il** est bien chaud.

Les plaisirs sont comme les parfums , il faut les eloigner pour les mieux sentir encore. Kommunikativ vazifasiga ko'ra, bunda gaplar 3 turga bo'linadi.darak gap, so'roq gap, va undov gap. Shuni takidlab o'tish joizki, fransuz tilida *IL FAUT* oborotli paremiologik birliklar darak gap tarkibida ko'proq uchratishimiz mumkin , so'roq va undov gaplarda nisbatan juda kam uchraydi.

Adabiyotlar

1. Bahodir Sarimsoqov/ https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/o-zbek-marosim-folklori
2. Uz.m.wikipedia.org
3. R. Bobokalonov,M.Hamidova. Fransuz tili grammatikasi - "Grammaire du francais" o'quv qo'llanmasi. –Toshkent : GloboEdit, 2021.
4. Ашуров , Ш. Лексические особенности английских эквивалентов узбекских пословиц, передающих национальные ценности. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 1, 1 (янв. 2023), 1–10. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp1-10
5. Spence, N.C.W. Composé nominal, locution et syntagme libre // La Linguistique. – Paris, 2006. - 2. – P. 4-24.
6. Маматов А.Э., Очерки по французской фразеологической стилистике, Ташкент, 1989.
7. Suvonova N. Matn tahlili. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDCHTI nashri, 2010. –B. 13. / - 47 b. https://arm.samdchti.uz/library/book_view/117
8. Сувонова Н. 2023. Коммуникативно-прагматические особенности императивных паремий (на материале французского языка). *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 1, 1 (янв. 2023), 20–28. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp20-28

MERGANLARNI PROFESSIONAL TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK YONDOSHUV

MUINOV Alisher Musinovich
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada merganlari professional tayyorlashda psixologik tomondan yondoshuv, merganlarni saralashda ularning individual-psixologik jihatlari, jumladan temperamentini inobatga olish masalalari yoritilgan. Undan tashqari, 2-jahon urushi, Vyetnam hamda Afg'oniston urushlarida merganlarga qo'yilgan talablardan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mergan, jangovar harakatlar, merganlik san'ati, merganning vazifasi, psixologik tayyorgarlik, psixologik tonus, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются значения психологической состовляющей при профессиональной подготовке снайперов, учет индивидуально-психологических особенностей, в том числе темперамента личности. Также, приведены примеры требований, предъявляемые к снайперам, из истории 2-ой мировой войны, войны во Вьетнаме и в Афганистане.

Ключевые слова: Снайпер, боевые действия, искусство снайпера, задачи снайперов, психологическая подготовка, психологический тонус, холерик, сангвиник, флегматик, меланхолик.

Annotation. This article discusses the values of the psychological component in the professional training of snipers, taking into account individual psychological characteristics, including the temperament of the individual. Also, examples of requirements for snipers from the history of the 2nd World War, the Vietnam War and Afghanistan are given.

Keywords: Sniper, fighting, sniper art, sniper tasks, psychological preparation, psychological tone, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic.

Harbiylik kasbi o'ziga xos yuqori mas'uliyat talab etuvchi soha sanaladi. Xizmat bilan bog'liq mas'uliyat hamda davlat, jamiyat va xalq manfaatlari har narsadan ustunligini his qilish harbiy xizmatchilar faoliyati davomida turli psixologik zo'riqishlar ta'siriga tushishiga olib keladi. Saralangan harbiy soha egalari ichida merganlarning kasb psixologiyasi tubdan farq qiladi, shuning uchun ham ularni professional, psixologik jihatdan tayyorlash davlat siri sanaladi. Merganlarni (psixologik, professional) tayyorlash bo'yicha manbalarni tahlil qilganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek merganlarni harbiy xizmatchilar ichida oliy toifali-sara jangchi sanalganligi uchun ham manbalarning asosini yopiq turdagi axborotlar tashkil etadi. Ochiq internet manbalar tahliliga e'tibor bersak, merganlarni psixologik, professional jihatdan tayyorlash bo'yicha faqatgina umumiy mazmundagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Masalan, 2017 yil I.V.Nagornov va D.A.Saraykin muallifligida Janubiy-Ural gumanitar-pedagogik universitetida "Sportchini otish sportidagi psixologik tayyorgarligi (Psixologicheskaya podgotovka sportsmena v strelkovom sporte)" nomli metodik tavsiyalarda mualliflar o'qchi sportsmenlarni tayyorlash bo'yicha ma'lumotlarni yoritgan. Unda o'qchi sportsmen shaxsining individual psixologik xususiyatlarini asosiy to'rt komponentga ajratilgan:

1-компонент шахснинг йўналганлиги;

2-komponent shaxsning xususiyatlari, jumladan uning xarakteri va temperamenti;

3-komponet shaxsning qobiliyati;

4-komponent o'qchi sportsmen shaxsining "Ego"si, ya'ni "Men"ligi.

Merganlarni professional, psixologik tayyorlash bo'yicha manbalar ichida asosan o'qchi sportsmenlarni tayyorlash bo'yicha (yuqorida ko'rsatilganidek) metodik tavsiyalar kabi umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Ochiq manbalar tahlilidan kelib chiqib merganlarni saralab olishda inobatga olinishi kerak bo'lgan ba'zi bir psixologik omillarga e'tibor qaratamiz.

Bugungi kunda mergan – bu maxsus tayyorlangan o'qchi, otish, niqoblanish va kuzatish san'atini mukammal biladigan harbiy xizmatchi: u odatda birinchi o'q bilan nishonni yakson qiladi. Merganning vazifasi – qisqa vaqt ichida paydo bo'ladigan muhim, harakatlanuvchi, niqoblangan va niqoblanmagan alohida nishonlarni (dushman merganlari, ofitserlari, aloqachilari va boshqa nishonlarni) yo'q qilishdir. Mergan optikali snayper miltig'i va mo'ljalga olishni osonlashtiradigan maxsus moslamalar bilan qurollanadi.

Mergan – bu shunchaki optik qurol bilan qurollangan harbiy xizmatchi emas. U juda uzoq masofaga nihoyatda aniq ota oladigan o'qchi. Mergan aniqligining meyori – 800 metr masofadagi dushmanni peshonasiga, aniqrog'i ko'zlari orasiga tegiza olishidir.

Ikkinchi jahon urushi davrida Buyuk Britaniyaning eng yaxshi snayperi deb tan olingan Klifford Shor merganlar to'g'risida quyidagilarni yozgan: "Merganlik san'ati – bu sovuqqonlik bilan boshqa odamning hayotidan mahrum qilish bilan bog'liq o'ziga xos fan bo'lib, uni o'rganish va takomillashtirish zarurdir. Men mergan dushmandan nafratlanishi kerak degan fikrni tez-tez eshitganman, lekin nafratlanadiganlardan yaxshi mergan chiqmasligiga ishonch hosil qilganman. Men sovuqqon va o'ziga ishongan odamlarni afzal ko'rardim. Merganlar o'z qurboniga nisbatan nafratni his qilmaydigan, lekin dushmanga yaqinlashib, uni yo'q qilishni o'zlari uchun eng muhim deb hisoblaydigan ovchilardir ... ".

2-jahon urushida, Stalingrad himoyasi vaqtida, 62-armiya qo'mondoni general V.I.Chuykov tomonidan varaqa-eslatma tuzilgan. Mazkur vraqada mergan kasbining mohiyati juda aniq ta'riflangan.

Mergan varaqasi. "Mergan – bu maxsus tanlangan, o'qitilgan va mustaqil harakatlarga tayyor jangchi, jangovar vaziyatda mohirona harakat qilishni biladigan o'qchi. Merganning vazifasi – qisqa vaqt ichida paydo bo'ladigan muhim va xavfli nishonlarni yo'q qilish, sabr-toqat bilan, ularga aniq zarba berish uchun

to‘g‘ri vaqtni tanlash bilan hal qilinadi. Merganlik san’ati – nishonni mustaqil ravishda topish, uning ahamiyatini baholash va bitta o‘q bilan yakson qilish.

Mergan nafaqat dushmanning tirik kuchini yo‘q qilishi, balki aniq o‘q otish bilan dushmanning jangovar faoliyatini izdan chiqara olishi kerak. Buning uchun uning ofitserlarini yo‘q qil; razvedkachilar, kuzatuvchilar, aloqachilar, artilleriya kuzatuvchilari ortidan muntazam ov qilishni tashkil qil; ularning kuzatuv moslamalarini ishdan chiqar; dushmanni ko‘r qil; uni turib bemalaol yurishiga yo‘l qo‘ymasdan, emaklashga majbur qil; uning boshini ko‘tarishiga yo‘l qo‘yma; oddiy askarlar orasida vahimani tarqat. Merganning yakuniy maqsadi – dushman orasida vahimani yuzaga keltirish. Sen kutilmagan joyda paydo bo‘lgin. Esingda bo‘lsin: dushman sendan qo‘rqishi kerak!”

Kinodagi mergan obrazi qanchalik romantik ko‘rinsa ham, aslida u (biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi) yuqori professional va yaxshi qurollangan “qotil”dir. Mergan ishining asosiy mazmuni dushmanni tirik kuchini yakson qilishdan iboratdir. Harbiy psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, har qanday harbiy xizmatchi, hatto jangovar stress holatida ham, psixologik to‘siqdan o‘tib, odamni o‘ldirishga qodir emas. Buni ongli ravishda, ataylab va sovuqqonlik bilan bajara oladiganlar kam.

“Agar siz miltiqning mo‘ljalga oladigan optikasiga qarasangiz, birinchi bo‘lib ko‘zingizga tashlanadigan narsa bu – odamning ko‘zlari bo‘ladi. Odamning konturiga, sharpasiga, olomonga qarab otish bilan bir juft ko‘zga otish o‘rtasida katta farq bor. Odamni esankiratib qo‘yadigan asosiy narsa – odamning ko‘zlardir. Aksariyat odamlar aynan o‘sha paytda harakat qila olmay qoladi, bu o‘ziga xos jasoratni talab qiladi ”, - deb eslaydi AQSH dengiz piyodalari kapitani, Vyetnamda merganlik bo‘yicha o‘qituvchi.

Darhaqiqat, qisqa masofada, jang avjiga chiqqanida dushmanni o‘ldirish ancha oson, chunki o‘zini himoya qilish mexanizmi ishga tushadi: yo siz dushmanlaringizani o‘ldirasiz, yoki ular sizni. Mergan esa, uzoqdan turib o‘q uzadi, o‘zi xavf ostida qolmaydi, lekin o‘zini qurbonini optika orqali yaxshi ko‘rish imkoniyatiga ega. U sizning dushmaningiz ekanini tushunsangiz ham, hech narsadan xabari yo‘q odamga o‘q uzishga o‘zingizni majbur qilish oson emas. Shuning uchun ham, g‘arb jamiyatida, hatto urush yoki jang bilan bog‘liq harakatlar bo‘lishiga qaramay armiya merganlarining faoliyatini qoralashadi. O‘rtacha “g‘arblik” odam har qanday “sportga mos kelmaydigan” hatti-harakatlardan nafratlanadi: u umuman o‘ldirish adolatsiz deb hisoblaydi, chunki agar kerak bo‘lsa, buni ochiq jangda qilish kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha, “ayyorlik” bilan o‘q uzgan mergan, jinoyat bilan chegaralangan adolatsiz harakatni amalga oshiradi deb hisoblaydi.

Shu nuqtai nazardan, faqat jangovar harakatlarda qatnashgan va inson hayotining qadrini biladigan harbiy xizmatchini haqiqiy tajribali professional mergan deb hisoblash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, merganning o‘rnida o‘zini his qilish uchun, endi merganlik faoliyatini boshlayotgan harbiy xizmatchi, qanchalik bu dahshatli bo‘lmasin, hech bo‘lmaganda bitta dushmanni otib

o‘ldirishi va dushmanning o‘limdan bir soniya oldin uni ko‘zini ko‘rish kerak. Haqiqiy mergan o‘q otish maydonchasida emas, balki jangda tug‘iladi. “... Menda nimadir o‘zgara boshlaganini his qildim. Jangga borganingizda, siz yer yuzida yurgan eng dahshatli hayvon turiga aylanasiz. Siz yirtqichga aylanasiz. Men uchun itni o‘ldirish odamni o‘ldirishdan ko‘ra qiyinroq ekanligini his qildim ”, - deb eslaydi 1943 yilda Italiyada jang qilgan AQSH armiyasining sobiq serjanti.

Jang sharoitida mergan oddiy piyoda askar kabi stressli ta’sirlarga duchor bo‘ladi, ammo undan farqli o‘laroq, mergan hissiyotlarga berilmasdan, vazifani bajarishga to‘liq e’tibor qaratishi kerak. Mergan va oddiy askar o‘rtasidagi farq sportchi-otuvchi va sportchi-yengil atletikachining farqiga o‘xshaydi: sportchi-yengil atletikachini “sport agressiyasi” g‘alabaga olib keladi, sportchi-otuvchi esa “g‘azablanib” hissiyotlarga berilsa mag‘lubiyatga uchraydi.

Merganning jangovar ishining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, u ko‘p hollarda asosiy bo‘linmadan ajratilgan holda harakat qiladi. Armiyadagi harbiy intizom harbiy xizmatchilarda “bir-birini qo‘llab quvvatlash” va qo‘mondonlarning buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunishni tarbiyalaydi, individuallik qo‘llab quvvatlanmaydi. Mergan esa “yolg‘iz bo‘ri”: u faqat o‘z kuchiga, quroliga va – agar u juftlikda ishlasa – yolg‘iz sherigiga tayanadi; u barcha qarorlarni o‘zi qabul qiladi, shuning uchun afg‘on urushida askarlar jargonida merganni “solist”, ya’ni “yakka xonanda” deb atashgani bejiz emas. Umuman olganda, nostandart o‘ylash qobiliyati merganning asosiy professional fazilatlaridan biri hisoblanadi, chunki bu merganga dushmanni yengishga va shu bilan topshiriqni bajarib omon qolishga imkon beradi.

Nihoyat, pistirmada uzoq vaqt mobaynida harakatsiz yotish tufayli yuzaga kelgan yuqori statik jismoniy zo‘riqish nafaqat merganning organizmiga, balki ruhiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi merganlarga bir qator o‘ziga xos talablarni qo‘yadi va ularni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

Tanlovdan o‘tgan va merganlar guruhiga kirgan nomzodlardan o‘ta yaqin mini-jamoa shakllanishi uchun doimiy juftliklarni (o‘q otuvchi va kuzatuvchi) tuzish maqsadga muvoffiq. Juftliklarning psixologik va shaxsiy xususiyatlarga bir-biriga mos kelishi kerak. Ikkinchi jahon urushi paytida inglizlar “komandos” guruhlarini tayyorlash jarayonida xuddi shunday usulni qo‘llashgan.

Mergan doimiy yuqori psixologik tonusga ega bo‘lishi va berilgan vazifani yaxshi bajara olishi uchun muntazam psixodiagnostik tekshiruvidan o‘tib turishi zarur. Stress bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olish uchun muntazam ravishda relaksatsiya, ya’ni “bo‘shashish” shakldagi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi kerak. Bundan tashqari, relaksatsiya mashg‘ulotlarini jangovar operatsiyalarga borishdan oldin ham o‘tkazilishi maqsadga muvoffiq hisoblanadi. Mazkur mashg‘ulotlar merganning o‘ziga ishonchni oshirishga, tormozlanish jarayonini kamaytirishga va o‘ziga xos qo‘rquv yoki tashvish bilan kurashishga yordam beradi.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki merganlikka saralab olishda harbiy xizmatchining nafaqat fiziologik tuzulishini, jismoniy baqquvatligini va tibbiy sog'lomligini, balki uning psixologik xususiyatlarini, ya'ni temperamenti, xarakter va qobiliyatini ham chuqur o'rganish zarur. Harbiy xizmatchilarining psixologik xususiyatlarini o'rganish psixologiya sohasining mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Merganlikka saralab olish jarayonini (harbiy xizmatchi temperamenti misolida) ko'rib chiqamiz.

Merganlikka saralab olish jarayonida ayniqsa harbiy xizmatchining temperamentini chuqur o'rganmasdan turib ularni merganlikka tayinlash noto'g'ridir.

Temperament harbiy xizmatchi psixik faoliyatining mazmunini emas, balki xizmat faoliyati davomida paydo bo'ladigan dinamik xususiyatini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda temperament harbiy xizmatchining tashqi muhitga bo'lgan yoki voqea va hodisalarga nisbatan reaksiyasida namoyon bo'ladi.

Barchamizga ma'lum-ki, temperament quyidagi 4 turga ajratiladi (Gumoral nazariya bo'yicha):

Xolerik temperamentidagi harbiy xizmatchiga nobarqarorlik, o'zini tuta olmaslik, reaksiyalarning tezligi, jonli mimika va harakatchanlik xos. Xolerik I.Pavlovning fikricha aniq jangovar tip, u oson va tez qo'zg'aladi. Qiyinchiliklarsiz yangi hayot sharoitlariga moslashadi, atrofdagi kishilar bilan oson muloqatga kirishadi. U yangi sharoitlarda paydo bo'ladigan to'siqlardan qo'rqmaydi, jo'shqin faoliyat sohibi ekanligini va ixtirochiligini namoyon etadi, shuningdek, tezda jamoa lideriga aylanadi.

Bunday odam ishni faol boshlab, uning oxirida sovib qolishi mumkin. Uni bir tekisdagi sekin harakatlar toliqtiradi. U jo'shqin va keskin harakatlarga moyil. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, xolerik temperamentli odam biron topshiriqni bajarishdan oldin keragidan ortiq hayajonlanadi. Bu esa o'q otish mashg'ulotlari, jangovor navbatchiliklarda salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Xolerik odamlar deyarli har doim jizzaki, tajang, otashin va o'zini tuta olmaydilar. Kayfiyati tez o'zgarib turadi, ichki xissiyotlar yorqin, lekin davomli emas. Nizoli vaziyatlarda ularni qo'llab-quvatlash yoki tan berish orqali jahldan tushirshi yoki tinchlantirish mumkin.

Sangvinik temperamenti vazmin odamlarga xos. Uning harakatlari xolerikka qaraganda sekinroq, ammo bunday tip yangi sharoitlarga tezda moslashadi. Harbiy xizmatchi-sangvinik o'zining optimistligi va amaliyotchiligi bilan jamoaga tezda qo'shilib ketadi. Xizmatdoshlari bilan tezda tanishib, o'rtoqlik munosabatlarini o'rnatadi. Bunday kishilar ancha xushchaqchaq, optimist, umid-ishonchli, hazilkash. Sangvinik tez qizishib, tez soviydi, hozirgina o'zi tashabbus bilan kirishgan ishga nisbatan qiziqishi darrov yo'qoladi. U juda ko'p va'da beradi, zero har doim ham uni uddasidan chiqmaydi, notanish odamlar oson va qoniqish bilan munosabatga kirishadi,ular yaxshi suhbatdosh, mehribon, g'amxo'r. Sangvinik

faol, kuch-quvvatli, harakatlari jonli, boy mimikaga ega, ham aqliy ham jismoniy ishlar bilan faol shug‘ullana oladi.

Flegmatik temperamentidagi odam vazmin, kam harakt qiladigan va xotirjam bo‘ladi. Unga kuchsiz emotsional qo‘zg‘aluvchanlik xos. U bo‘lg‘usi harakatlarni uzoq o‘ylaydi, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, hayotning yangi sharoitlariga qiyinchilik bilan va sekin moslashadi. Ammo ishda qat'iylik va chidamlik ko‘rsatadi. Flegmatik o‘rtoqlikka moyil emas, ya'ni ko‘proq yolg‘izlikni ma'qul ko‘radi. Flegmatiklar sovuqqon. Ishdagi faollik yoki zo‘riqishdan ko‘ra ishsiz o‘tirishni afzal ko‘radi. Juda sekin qo‘zg‘alib, asta-sekin tinchlanadilar. Mimikasi yorqin emas, harakatlari sekin. Og‘ir-bosiq. Odamlarga moslashib bo‘lgandan keyingina erkin muloqotga kirishadi.

Melanxolik temperamentidagi odamga esa boshqalarga qo‘shilmaslik va tashabbus ko‘rsatmaslik xos. Unda ko‘nikish jarayoni qiyinchilik bilan kechadi. U bir-ikkita o‘rtoqlar orttirish bilan qanotlanib, o‘ziga nisbatan amalga oshirilgan qo‘polliklarga ularni ichiga yutish bilan javob beradi. Ular xafagarchiliklarni uzoq vaqt o‘zlarida saqlab yuradilar va uzoq davom etadigan his-tuyg‘ular bilan yashaydilar. Melanxolik temperamentidagi kishilar jiddiy va murakkab ichki dunyo bilan yashaydilar, hamma narsaga e'tibor beradi, o‘ta ehtiyotkor, nozik qalb egalaridir. Melanxolik har doim og‘ir-bosiq, o‘n marta o‘ylab, bir marta ulgursa gapiradi. Va'dasini ustidan chiqa olmasa, ahamiyatli bo‘lmasada, chuqur qayg‘uradilar. Tabiatda sof temperamentli kishini uchratish qiyin, har qanday insonda biron yetakchi temperament tipiga qo‘shimcha ravishda turli tiplarga xos belgilarni uchratish mumkin.

Oliy nerv faolit xususiyatiga ko‘ra I.P. Pavlov o‘z ta'limotida temperamentni quyidagi jadval asosida yoritgan.

Temperament tiplari	Nerv sistemasining kuchi	Nerv tizimining muvozanati	Nerv tizimining ildamligi
Xolerik	Kuchli jo‘shqin	Muvozanatsiz qizg‘in	Serharakat
Sangvinik	Kuchli serharakat	Muvozanatli	Serharakat
Flegmatik	Kuchli vazmin	Muvozanatli	Serharakat yoki inert
Melanxolik	Kuchsiz	Muvozanatsiz tormozli	Inert (sust)

I.P. Pavlov bo‘yicha oliy nerv faoliyatining qo‘g‘alish va tormozlanish xususiyatiga ko‘ra tasnifi:

1. Oliy asab faoliyati «to‘xtovsiz» tip - kuchli, muvozanatsiz, harakatchan, qiziquvchan, o‘zini tuta olmaydi, serjahl, tajang (xolerik);

2. Oliy asab faoliyati «muvozanatlashgan yoki jonli» tip - kuchli, muvozanatlashgan, oson moslashuvchan (sangvinik);

3. Oliy asab faoliyati «sust» tip - kuchli, xotirjam, sekin harakat qiladi (flegmatik);

4. Oliy asab faoliyati «kuchsiz» tip – sustkash, tashqi muhitdagi qarama-qarshiliklarga duch kelishdan qo‘rqadi, o‘ta ta’sirchan (melanxolik).

Manbalar tahlilidan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin; merganlarni saralab olishda temperamentni inobatga oladigan bo‘lsak eng muvofiqi bu-sangvinik va flegmatikni tavsiya etsa bo‘ladi. Sangvinik-mulohazali, moslashuvchan va chaqqonlik xususiyatlari mos kelsa, flegmatik temperament egalari og‘ir-bosiqligi va diqqat va e’tiborini bir joyga qarata olishi bilan ajralib turadi.

Temperament xususiyatlariga ko‘ra xoleriklar va melanxoliklar bu sohaga to‘liq mos kelmaydi. Sababi, xolerik juda ham shoshma-shoshar va melonxolik nihoyatda sust harakat qilish xususiyatlari mavjudligi uchun.

Shu sababli sababli komandirlar va boshliqlar harbiy xizmatchilarni lavozimga tayinlaganda, yoki mutaxassislikka taqsimlashda ularning individual-psixologik xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishi juda zarurdir.

Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida ham Qurolli Kuchlarning jangovar shaligi va qudratini oshirishda merganlarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ishonchim komil merganlarimizning professional qobiliyatlarini oshirishda psixologik tayyorgarlik ishlari alohida o‘ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet-resurslar

1. I.V. Nagornov, D.A. Saraykin Psixologicheskaya podgotovka sportsmena v strelkovom sporte. Metodik tavsiyalar, Yujno-Uralskiy gosudarstvenniy gumanitarno-pedagogicheskiy universitet nashriyoti, - 2017 y.
2. E.G‘oziyev Umumiy psixologiya. – T.: - 2010 y.
3. Ch.Nasritdinov Harbiy psixologiya. – T.: “Fan”, - 2004 y.
4. «Психология снайпера» – intternet manbalri.
5. «Кто такой снайпер?» – intternet manbalri.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIMIDAGI INNOVATSION YANGILIKLAR

Mamaniyozov Husniddin Toshmurodovich
SamDCHTI, Narpay xorijiy tillar fakulteti dekani

Mamasidiqova Sarvinoz Abduxalim qizi
SamDCHTI, Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, islohotlar va olib borilayotgan strategiyalar haqida yoritiladi. Qolaversa, mazkur maqolada Respublikamizdagi olis va chekka hududlarga oliy ta'limning kirib elishi haqida ham yoritiladi.

Abstract. This article sheds the changes, reforms and ongoing strategies in the education system in the Republic of Uzbekistan. In addition, this article also covers the introduction of higher education to remote and remote areas of our Republic.

Аннотация. В данной статье описаны изменения, реформы и проводимые стратегии в системе образования Республики Узбекистан. Кроме того, в данной статье также освещается внедрение высшего образования в труднодоступные и отдаленные районы нашей Республики.

Kalit so'zlar: ta'lim, rivojlantirish, qishloqlardagi Oliy ta'lim, qabul kvota.

"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu-ilm-fan , ta'limva tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan bilim bilan chambarchas bog'liq."

(Shavkat Miromonovich Mirziyoyev)

Bugungi kunda, rivojlanayotgan va yangilanayotgan Yangi O'zbekistonimizda bir qancha islohotlar va yangiliklar, strategiyalar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonimizni har javhada yuksak cho'qqilarda Jahon miqyosida tanilishi va tan olinishi uchun amalga oshirilib kelinmoqda.

Ta'lim- barcha orzular eshigining kaliti deyilganidek, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Shuningdek, uning barcha bosqichlarini rivojlantirish, xalq ta'limini isloh qilish, yurtimizdagi barcha yosh avlodni ma'naviyatli, ma'rifatli va intelektual rivojlantirish kabi sifatlarga katta e'tibor bermoqda.

Bilamizki, yurtimizda biz yoshlarga bilim olishimizda bir qancha imkoniyatlar eshigi ochib berilishiga qaramay, Respublikamizning olis, chekka va to'g'li hududlarida joylashgan qishloqlardagi qobiliyatli va haqiqiy bilim egalari masofaviy va moddiy to'sqinliklar tufayli shaharlarga kelib, yetarlicha bilim olisha

olmayatganligi sir emas. Mana shu muammolarni ham bartaraf qilish uchun yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 4359-sonli qarori asosida Respublikamizning olis va chekka hududlarida ya'ni oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoji yuqori bo'lgan hududlar uchun OTM bakalaviriyatiga qabul qilish kvotalari belgilandi.

Bundan Respublikamizning 9ta hududidagi 48ta tuman(shahar)ning olis, chekka va tog'li hududlarida Oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash, ushbu hududdagi qobiliyatli bilim egalarini ham oliy ta'lim bilan qamrab olish yuzasidan maqsadli qabul uchun jami 815ta o'rin ajratildi.

1. Qoraqalpoq Respublikasi- To'rtko'l, Taxtako'prik, Mo'ynoq, Ellikqal'a tumanlari uchun.
2. Buxoro viloyati- Romiton, Peshku, G'ijduvon, Shofirkon tumanlari uchun
3. Jizzax viloyati- Forish, Baxmal, Zomin, Yangiobod, G'allaorol tumanlari uchun
4. Qashqadaryo viloyati- Kitob, Dehqonobod, Chiroqchi, Muborak, Mirishkor, Yakkabog', Qamashi, Shahrisabz tumanlari uchun.
5. Navoiy viloyati- Nurota tumani, Zarafshon shahari uchun
6. Samarqand viloyati- Nurobod, Kattaqo'rg'on, Payariq, Narpay, Qo'shrabot, Urgut, Ishtixon, Pastdarg'om, Paxtachi tumanlari uchun
7. Surxandaryo viloyati- Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Boysun, Sherobod, Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy tumanlari uchun
8. Toshkent viloyati- Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Ohangaron, Chinoz tumanlari uchun
9. Farg'ona viloyati- Rishton, Farg'ona, So'x tumanlari uchun

Qayd etilishicha, 2022-yilga kelib, O'zbekistonda Oliy Ta'lim Muassasalari soni 159 taga yetgani, 30 ta xorijiy filiallarning ochilishi, mahalliy universitetlarda xorij bilan hamkorlikda qo'shma fakultetlarning tashkil etilishi ham talabalar qamrovini sezilarli darajada oshishiga yordam berayotgan omillardan bo'layotganligini aytib o'tish zarur.

Shuningdek, o'qitish sohasidagi yangilanishlar jarayonida chet tillarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgani yoshlarimizning o'quv va ilmiiy faoliyatini xorijdagi nufuzli oliy ta'lim va tadqiqot muassasalarida davom ettirishga xizmat qiladi. Shu sababli ham, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 15-16-aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish bayoni 120- bandiga asosan, Respublikamizda xorijiy tilni yanada rivojlantirish, chekka hududlarga ham chet tillarini keng qamrovli tarzda kirib borishi maqsadida, Samarqand viloyatining ayrim chekka hududlarida ham chet tillarining fakultetlari ochilishi haqida aytib o'tgan edi. Va Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tllarni o'qitishni ommaviylashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Samarqand davlat chet tillari institutiga qabul kvotalari ikki, davlat granti asosida esa uch barobarga oshirildi. Chekka va olis hududlardagi yoshlarni ham oliy ta'limga qamrab olish maqsadida Narpay va

Payariq tumanlarida SamDChTI ning fakultetlari ochildi va ularning har biriga 75tadan qabul kvotalari ajratildi.

Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasini yaqqol misoli sifatida Narpay xorijiy tillar fakultetini olar ekanmiz, ushbu institut Samarqand viloyati Narpay tumani Dedan MFYda joylashgan bo'lib, bugungi kunda 140 dan ziyod talaba taqsil olib kelmoqda. Institutda barcha talaba yoshlariga yetarlicha shart-sharoitlar, qulay xonalar, axborot resusrlari va dars sifatini yanada sifatliroq bo'lishi uchun axborot kommunikativ vositalari asta-sekinlik bilan yaratib berilmoqda. Garchand, ushbu institut Samarqand viloyatining chekka hududida joylashishiga qaramay, Respublikamizning olis viloyatlari Andijon, Namangan, Farg'ona, Xorazm va Qoraqalpoq Respublikalari kabi viloyatlardan ham talabalar kelib tahsil olmoqda.

Bularning barchasi, O'zbekiston Respublikasidagi har bir fuqaro, har bir yosh avlod Oliy ta'limdan chetda qolmasligi va kelgusida malakali kadr bo'lib yetishishi, yurtimiz ravnaqiga, jahon miqyosida tanilishiga o'z xissalarini qo'shishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar eshigidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umar Murod. (08.07.2018) *Olis, Chekka va Tog'li Hududlarda Joylashgan Maktablar uchun Maqsadli Qabul Ko'rsatkichlari.* Qalampir.uz. https://qalampir.uz/uz/news/olis-chekka-va-tog'li-%D2%B3ududlarda-zhoylashgan-maktablar-uchun-mak-sadli-k-abul-kursatkichlari-belgilandi-5921
2. Нилуфар.А.А (2022) Бугунги Кунда Узбекистонда Таьлим Тизимида Олиб Борилаётган Ислохотлар. *Academic Researchers in Education Volume 3 Issue 10.*
a. https://cyberleninka.ru/article/n/bugungi-kunda-zbekistonda-ta'lim-tizimida-olib-borilayotgan-islohotlar
3. Samarqand davlat chet tillari instituti rektori Ilxomjon Madaminovich To'xtasinov.

DEVELOPING LISTENING SKILL IN YOUNG LEARNERS WITH SIMON SAYS ACTIVITY

Jayliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi
Termiz State university
jayliyevad@gmail.com

Annotation. This article focuses on using the popular "Simon Says" activity to develop active listening skills in young learners. The article discusses the importance of engaging activities that involve clear enunciation and contextualization of authentic materials to help children better understand and follow instructions. Repetition and feedback are also emphasized as essential factors for improving listening skills. The article also explores how technology can be used to enhance listening skills and provides practical strategies for teachers to incorporate technology in their teaching. Overall, this article provides valuable insights for educators looking to improve their young learners' listening skills through interactive and engaging activities such as "Simon Says".

Keywords: Active listening, Engaging activities, Simon says, Clear enunciation, Contextualization, Authentic materials, Repetition, Feedback.

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется использованию популярной игры «Саймон говорит» для развития навыков активного слушания у младших школьников. В статье обсуждается важность увлекательных занятий, которые включают четкое изложение и контекстуализацию аутентичных материалов, чтобы помочь детям лучше понять и следовать инструкциям. Повторение и обратная связь также подчеркиваются как важные факторы для улучшения навыков слушания. В статье также рассматривается, как можно использовать технологии для улучшения навыков слушания, и предлагаются практические стратегии для учителей по внедрению технологий в свое обучение. В целом, эта статья предоставляет ценную информацию для педагогов, стремящихся улучшить навыки слушания своих юных учеников с помощью интерактивных и увлекательных занятий, таких как “Simon says”

Ключевые слова: Активное слушание, Вовлекающие действия, Саймон говорит, Четкое изложение, Контекстуализация, Аутентичные материалы, Повторение, Обратная связь.

Introduction. The ability to actively listen is an essential skill that young learners need to develop. Engaging activities, such as the "Simon Says" game, can help children improve their listening skills while also making learning fun. In this article, we will explore how educators can use the popular "Simon Says" activity to develop active listening skills in young learners. We will discuss the importance of clear enunciation, contextualization of authentic materials, repetition, and feedback in improving listening skills in children. Additionally, we will explore how technology can be used to enhance listening skills and provide practical strategies

for educators to incorporate technology in their teaching. Clearly, this article aims to provide valuable insights and practical tips for educators looking to improve their young learners' listening skills through interactive and engaging activities such as the "Simon Says" game. Active listening is the ability to focus on and comprehend verbal messages being communicated by another person. In young learners, it is a crucial skill to develop as it enhances their ability to learn, communicate effectively, and build positive relationships with others.

Active listening involves not only hearing the words being spoken but also understanding their meaning, remembering them, and responding appropriately. For young learners, active listening skills are essential as they lay the foundation for their academic success and social development. Active listening helps them to better understand and retain information, follow directions, and engage in collaborative learning activities. Moreover, it can help them develop empathy, respect, and understanding towards others, leading to better communication and cooperation skills.

There are also another crucial terms which are related to developing listening skill in young learners. These are repetition and feedback.

To be more exactly, repetition helps young learners to develop their ability to recognize and understand the sounds and patterns of a new language. It also helps to reinforce key vocabulary and grammar structures. When young learners are exposed to the same language multiple times, they are more likely to remember it and develop their listening skills. Furthermore, feedback is important for young learners because it assists them to understand how well they are comprehending the language and what they need to do to improve. So, Teachers can provide feedback in many ways, such as correcting mistakes, asking questions, and providing guidance on how to improve listening skills. When young learners receive feedback, they are more likely to feel motivated to improve and to develop a better understanding of the language. Additionally, repetition and feedback can work together to enhance young learners' listening skills. For example, if a young learner listens to a recording multiple times, they may begin to understand more of the language with each repetition. If the teacher provides feedback on what they did well and what they can improve on, the young learner can apply that feedback to their listening skills during future repetitions.

Engaging activities are an essential aspect of teaching listening skills to young learners, as they help to make learning fun and encourage children to participate actively. One excellent example of an engaging activity for young learners is the "Simon Says" game. In this game, the teacher or facilitator gives instructions to the children, beginning each instruction with the phrase "Simon says." For example, "Simon says touch your nose." The children must follow the instructions only if they begin with the phrase "Simon says." If an instruction is given without this phrase, and a child follows it, they are out of the game. The last child standing is the winner. This game is engaging because it encourages active participation and requires the children to listen carefully to the instructions. It also helps to develop

their comprehension and memory skills, as they must remember the instructions and follow them in the correct order. Additionally, it can be customized to fit different themes or learning objectives, such as practicing vocabulary words or following multi-step directions. It can be said that "Simon Says" is an excellent example of an engaging activity that can be used to teach listening skills to young learners. It provides a fun and interactive way to develop their listening skills while promoting active participation and enjoyment in the learning process.

Methods. The popular game "Simon Says" was used to develop listening skills at school among young learners, and some methods were utilized for using this activity to enhance young learners' listening skills. Firstly, the game was introduced to the young learners. Explain the rules of the game, and provide an example of how it is played. It was started with simple commands, such as "Simon says touch your nose," or "Simon says jump up and down." These commands should be easy to understand and follow, so that the young learners can build their confidence and listening skills. Then, as the young learners become more comfortable with the game, gradually it was increased the complexity of the commands. For example, adjectives were added to the commands, such as "Simon says jump up and down five times," or "Simon says touch your nose with your left hand." Moreover, emphasizing listening also played significant role for the importance of listening by giving commands without saying "Simon says." If a learner performed an action without the "Simon says" prefix, they were out of the game. This reinforced the importance of listening and paying attention to the instructions. Lastly, some positive feedback was given to the young learners throughout the game by correcting mistakes, in order to develop good listening skill.

Results. The "Simon Says" activity was found an effective method for developing listening skills in young learners. To prove, actually it can be said that through repeated exposure to the game, young learners could improve their ability to comprehend and follow instructions. Also, they were able to learn to listen carefully to the commands, and respond appropriately.

Enhanced Vocabulary: The "Simon Says" game can also help young learners to develop their vocabulary. As the commands become more complex, learners are exposed to new words and phrases. By repeating these words and phrases, learners can begin to internalize them and use them in their own speech. Correspondingly, by the "Simon Says" game, young learners built their confidence in their ability to understand and follow instructions. As they successfully completed commands, they felt more confident in their listening skills, and are more likely to engage in other listening activities. Additionally, another effective result was that through repeated exposure to the game, learners improved their attention span, and learn to focus on specific details.

Discussion. It is believed that there are more disadvantages of using "Simon says" activity to improve listening skill in young learners. One of the cons of the game may be limited complexity. The game may become repetitive and limited in

its complexity over time, making it less challenging for older or more advanced learners. Also, lack of authenticity is shown as another disadvantage. The language used in the game may not reflect the authentic language that young learners will encounter in real-life situations, limiting the transferability of their listening skills to other contexts. Moreover, the game may be less effective in larger group sizes, as learners may struggle to hear the instructions or may not have an equal opportunity to participate. However, the article proved that the "Simon Says" activity can be an effective method for developing listening skills in young learners. Through repeated exposure to the game, learners can improve their comprehension, vocabulary, confidence, and attention span. The game provides immediate feedback to young learners, which can help them identify and correct mistakes and to be adapted to suit different cultures and languages, making it a versatile tool for teaching listening skills to young learners. Since the game is one of the engaging activities, it can be proved that while we are using engaging activities, clear enunciation and contextualization are considered as significant factors in improving listening skill. Clear enunciation refers to the ability of the teacher to pronounce words and phrases in a clear and understandable way. This is important for young learners because they are still developing their listening skills and may have difficulty understanding spoken language that is not enunciated clearly. When the teacher speaks clearly, it helps young learners to better comprehend the message being conveyed, leading to better learning outcomes. Contextualization means that the use of context to help young learners understand what is being said. This can be achieved through the use of visual aids, gestures, and other forms of non-verbal communication. Providing context helps young learners to better understand the meaning of words and phrases, and to make connections between what they hear and what they already know. It also helps them to retain the information they are learning. Therefore, both clear enunciation and contextualization are important in teaching listening to young learners as they help to improve comprehension and retention of information.

Conclusion. After analyzing the benefits and implications of using Simon Says game as a tool to develop listening skills in young learners, it can be concluded that this activity is an effective and enjoyable way to enhance children's ability to pay attention and follow instructions. By incorporating Simon Says into the classroom or home setting, teachers and parents can provide a fun and interactive environment for children to practice listening and develop their cognitive, social, and emotional skills. Furthermore, this activity can be easily adapted to different age groups and learning objectives, making it a versatile tool for educators and caregivers. It is important to note that while Simon Says game can be a valuable tool in fostering listening skills, it should not be the only method used to promote active listening. Teachers and parents should also provide opportunities for children to engage in meaningful conversations, practice turn-taking, and reflect on their listening experiences.

In summary, Simon Says game can be a powerful and engaging tool to promote listening skills in young learners, but it should be used in conjunction with other strategies to ensure a well-rounded and effective approach to developing listening skills.

References

1. "Developing Young Learners' Listening Comprehension Skills through Games" by Nur Faezah Mohd Sanif and Noraien Mansor, published in the English Language Teaching Journal.
2. "Improving listening skills through cooperative learning in young learners" by Amr M. El-Said, published in the Journal of Language and Linguistic Studies.
3. https://readingeggs.com/articles/2015/07/08/listening-for-kids/
4. https://listenwise.com/developing-listening-skills-for-kids/
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Simon_Says

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA AQLIY TARBIYANING ROLI

O'razboyeva Madina
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi
Ilmiy rahbar: Ro'ziyeva Nasiba Kenjayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda aqliy tarbiyaning o'rni haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: aql, sezgi, idrok, tafakkur, xayolni bilish jarayonlari,aqliy rivojlanish

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarga ta'lim va tarbiya berishga,ularni intelektual,ma'naviy-axloqiy,etik,estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga,shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi deb ko'rsatib o'tilgan,Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan 3-modda 5-bandida

Yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obyektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biridir.Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik va psixalogik ta'sir ko'rsatishdir. Shundan ko'rinib turibdiki,aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib,u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar,ko'nikma,malaka,me'yorlar,qoidalar va boshqalarda ro'y beradi.Bu holat katta insonlar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar,metodlarni,kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida SHarq va G'arbning qomusiy olim va pedagoglarining o'rni kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining qator asarlarida ta'lim-tarbiyaga kata e'tibor bilan qaraganlar. Faylasuf olim Forobiy o'zining «Fozil shahar kishilarining qarashlari» asarida tarbiya orqali' insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. «Pedagogika — Abdulla Avloniyning yozishicha, — bola tarbiyasining fani, demakdir ». «Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir», «Dars oluvchi—biluvchi, tarbiya oluvchi—amal qiluvchidir». Bu erda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan

ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi.

Bu sohada Sharq va G'arb xalqlari yaratgan og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta'lim-tarbiyaga doyr ilg'or fikrlarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish biz uchun juda qimmatlidir:

— ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalari amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak tarbiyachi — o'qituvchilarga o'rgatish,hamda xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;

— maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Bunday vazifalarda tadqiq etish:

— birinchidan, bolalar sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi;

— ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojl antiradi;

— uchinchidan, Vatanga, tabiatga, jonajon o'lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o'rtoqlik va jamoatchilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi;

— to'rtinchidan, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir.

Xulosa qilib aytganda, katta yoshdagi bog'cha bolalariga har bir bayram va tantananing ahamiyatini ularning yoshlariga mos holda tushuntirishadi. Bu o'rinda tarbiyachining vazifasi — bolalarning hissiyotlarga ta'sir etib, ularda o'z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g'ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir. SHunday qilib, bog'cha bolalarini tabiat, hozirgi davr voqealari bilan tanishtirish orqali ularning aqliy qobiliyati, axloqiy va estetik hislari shakllanib boradi.Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiyaga juda katta e'tibor qaratish lozim. Bolani yetuk shaxs bo‘lib kamol topishi uchun avvalambor ota-onalar bolalarga e'tibor berishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. P. YUsupova. —T., «O'qituvchi». 1993.A.Minavvarov Pedagogika. — T., «O'qituvchi». 1996.
2. Yu.P.Azlarov Bolalarni sevish san'ati. — T., 1992.

3. Ruzieva Nasiba Using games and free language learning APPS in foreign language classes through new innovative approaches to foreign language teaching. In volume 11, Issue 1, January, 2023. Galaxy International Interdiciplinary Research Journal (GIIRJ).

O'QUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TASHKILLASH PEDOGOGIK TIZIMI

Vapayeva Fazilat Shuhratovna
Andijon Davlat Pedogogika Instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimga xos xususiyatlarni keng darajada qamrab olgan murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. Chunki o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari nafaqat shaxsiy refleksiyani, balki mustabid sovet tuzumining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulga yuz tutish omillari; sobiq sovet davlati milliy siyosatining inqirozi va millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar; O'zbekiston iqtisodida paxta monopoliyasi va uning Respublika aholisining ijtimoiy hayotiga salbiy ta'siri; O'zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashuvi haqida ob'ektiv tasavvurni o'quvchilarda shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'pqirrali jarayon bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: pedogogik tizim, refleksiv ko'nikmalar, subyekt-obyekt munosabatlar, subyekt-subyekt munosabatlar.

Annotation. Processes of formation and development of reflexive skills in students organized in general secondary educational institutions is a complex pedagogical system that covers the characteristics of the system to a large extent. Because the processes of formation and development of reflexive skills in students are not only personal reflection, but also factors of political, economic and social decline of the authoritarian Soviet system; the crisis of national politics of the former Soviet state and conflicts in inter-ethnic relations; cotton monopoly in the economy of Uzbekistan and its negative impact on the social life of the population of the Republic; It is necessary to have a multifaceted process aimed at forming and developing students' objective perception of the deterioration of the ecological situation in Uzbekistan.

Key words: pedagogical system, reflexive skills, subject-object relations, subject-subject relations.

Аннотация. Процессы формирования и развития рефлексивных умений у учащихся, организованные в общеобразовательных учреждениях, представляют собой сложную педагогическую систему, которая в значительной мере охватывает характеристики системы. Потому что процессы формирования и развития рефлексивных способностей у школьников являются не только личностной рефлексией, но и факторами политического, экономического и социального упадка авторитарной советской системы; кризис национальной политики постсоветского государства и конфликты в межэтнических отношениях; хлопковая монополия в экономике Узбекистана и ее негативное влияние на социальную жизнь населения республики; Необходим многогранный процесс,

направленный на формирование и развитие у учащихся объективного восприятия ухудшения экологической ситуации в Узбекистане.

Ключевые слова: педагогическая система, рефлексивные умения, субъект-объектные отношения, субъект-субъектные отношения.

Kirish. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga sobiq Ittifoqning O'zbekistonda amalga oshirgan bir tomonlama siyosati va uning oqibatlari hamda O'zbekistonning mustaqillikka erishish jarayonlaridagi mashaqqatlar va halqimizning tarixiy orzusi bo'lgan mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati haqida ob'ektiv va keng miqyosda, izchil va uzviy tushunchalar berib borish ularda mustaqillikka erishishni orzu qilib yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, ota-bobolarimizning hayoti, ushalmagan orzu-maqsadlari va ular qoldirgan meros haqida ob'ektiv tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va tizimli rivojlantirib borish jarayonlari samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarlarining funktsional vazifalarini amalga oshirish jarayoni samaradorligi bilan uzviy bog'liq va aloqador bo'ladi. Chunki murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari nafaqat dars mashg'ulotlari, balki darsdan tashqari, sinfdan tashqari, maktabdan tashqari kabi mashg'ulotlar jarayonlarini, shuningdek, turli uchrashuvlar, davra suhbatlari va ko'pgina ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni ham qamrab olgan holda innovatsion murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi.

Metodologiya. Demak, mazkur jarayonlar samaradorligini ta'minlash, pedagog xodimlar kasbiy kompetentliligini rivojlantirish, o'zaro ob'ektiv munosabatlar xukm surishi uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni, qulay ta'limiy muhitni yaratish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasasi, mahalla va ota-onalarning uzviy va tahliliy-ijodiy hamkorliklarini ta'minlash zarur.

Shuningdek, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi birinchidan, mazkur jarayonda sub'ekt-ob'ekt (o'qituvchi-o'quvchi) munosabatlari o'rnida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining (sub'ekt –sub'ekt munosabatlarida nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchi ham ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi) shakllantirish darajasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ta'limtarbiya jarayonlari sub'ektlaridan biri bo'lgan pedagog o'qituvchilarning kasbiy kompetentlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, eng asosiysi ta'lim-tarbiya jarayonlari sub'ekti hisoblanayotgan (o'z vaqtida ta'limtarbiya jarayoni ob'ekti bo'lgan) o'quvchilarda tarix haqiqati va tarixiy saboqlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarni shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Demak, o'quvchilarda o'qish va o'rganish yo'nalishlarida zaruriy extiyojlarni shakllantirib va muntazam rivojlantirib borish uchun ularda o'quv motivlarni shakllantirish, tarixiy jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish va eng asosiy omil sifatida tarixiy haqiqatni tabiiy va ob'ektiv baholashga ularda qiziqish uyg'otish zarur.

Muhokama. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish samaradorligi ularning o'z refleksiv faoliyatlari natijalaridan qoniqish hosil qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, do'stona munosabatlarga asoslangan o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi faoliyatini tashkil etish, ya'ni innovatsion jarayonlarni tashkil etish orqali sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini ijodiyligini ta'minlashga bevosita bog'liq bo'ladi.

Refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida barcha o'quvchilarning fikrini o'rganish va takliflarini inobatga olish ixtiyoriy tarixiy voqea yoki xodisaning vujudga kelishi, uning salbiy yoki ijobiy oqibatlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonlarida barcha o'quvchilar faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Barcha o'quvchilar uchun bunday qulay ta'limiy muhitni vujudga keltirish refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlari sub'ektlaridan biri bo'lgan pedagog xodimlar kasbiy kompetentliligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi nafaqat o'rganilayotgan ob'ektning mazmun-mohiyati va ahamiyati darajasiga yoki ularning faolligiga, balki mazkur jarayonni tashkil etishga mas'ul hisoblangan ta'lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislarning o'z funktsional vazifalari mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib etishi va uni amalga oshirish yo'nalishidagi kompetentliligi darajasiga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish hamda boshqarish ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, birinchisi ikkinchisini to'ldiruvchisi, ya'ni tashkil etish boshqarishga asos sifatida xizmat qiladi. Boshqaruv nazariyasida tashkil etish boshqaruvning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi.

Boshqaruv nazariyasi asoschilari XX asrning boshlarida boshqaruvning asosiy funktsiyalari sifatida: rejalashtirish; tashkil etish; farmoyish berish; muvofiqlashtirish; nazorat funktsiyalarini ajratib ko'rsatgan bo'lib, boshqaruvni kelajakni ko'ruvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi .

Adabiyotlarda "boshqaruv" maqsad yo'nalishida ob'ektni muvofiqlashtirish; maqsadga erishish uchun ob'ektga ta'sir etish; maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish sifatida ham keltiriladi [1].

Mazkur fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tashkil etish boshqaruv funktsiyasi sifatida ham, boshqaruv vositasi sifatida ham ta'riflanayotganligini ko'ramiz, shuningdek, menejment nazariyasida rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat funktsiyalarini ajratilishi va ularni birinchi darajali deb hisoblash qabul qilinganligi ham yuqorida keltirgan fikrimizni tasdiqlaydi.

Natija. Shunday ekan, umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida mazkur jarayon tashkilotchilari, rahbarlar, mutaxassislar va o'quvchilar ma'lum bir belgilangan

munosabatda bo'ladilar va bu munosabatlar o'zaro ta'sir jarayonlarida amalga oshadi.

O'zaro ta'sir – bu inson faolligining ko'rinishi sifatida, muloqotning interfaol shakli va individ faoliyatining ma'lum bir turi sifatida mustaqil ahamiyat kasb etuvchi jarayon [2].

O'zaro ta'sir jarayonida muloqot vujudga keladi va bunda inson o'zini-o'zi anglaydi, o'z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi. Buning uchun inson o'zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur [69, [3].

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi .

Insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo'lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hhisoblanadi.

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirokchilar barcha yo'nalishlar bo'yicha teng darajada axborotlar bilan taminlanadi va ularda tushunchalar, shaxsiy fikrlar tug'iladi. Bunday o'zgarishlarning xususiyati – bu axborotlar almashinish yo'li bilan o'zaro ta'sir ko'rsatish natijasida qo'lga kiritilgan integrativ natijadir.

Axborotlar almashinish jarayoni samaradorligi har jihatdan rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat qilish jarayonlarida tashkilotchilar, rahbarlar, mutaxassislar va o'qituvchilar tomonidan to'plangan axborotlarning ishonchliligi va yangiligiga hamda axborotlarni qayta ishlash, ya'ni axborot tahlil funktsiyasini amalga oshirish samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Axborot-tahlil funktsiyasining asosiy vazifasi pedagogik tizimlar (pedagogik jarayon) to'g'risida uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'ektiv baholashdan iborat. Bu vazifalarni bajarish asosida boshqaruv faoliyatining strategiyasi, rivojlanish omillari, bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yo'llari aniqlanadi. Shuning uchun, axborotlar nafaqat ishonchli, balki yangi va foydali bo'lishi ham zarur.

Shunday ekan, axborot-tahlil funktsiyasini amalga oshirish refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Chunki murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilar faolligi hamda ularning hamkorlikdagi faoliyati samaradorligi tarix va tarixiy voqea yoki tarixiy xodisa haqidagi ma'lumotlar va axborotlarning aniqligi, ishonchliligi, ob'ektiv asoslanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda axborotlar olish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash jarayonlarini qamrab oluvchi refleksiv faoliyat jarayonlari samaradorligi ko'p jihatdan axborotlarning asoslanganlik darajasi va amaliy ahamiyatiga bog'liq hisoblanadi.

Demak, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi nafaqat o'rganiladigan tarixiy ob'ekt haqida axborotlar to'plash, balki o'quvchilarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlar, ularning kayfiyati, munosabatlari, dunyoqarashi, tushunchalari va bilimi haqida ham axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash va qayta ishlashning ob'ektivligiga ham bog'liq hisoblanadi. [4]

Xulosa. Shunday ekan, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari sub'ektlari haqida ham uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'ektiv baholash zarur bo'lib, bu vazifalarni bajarish asosida innovatsion murakkab pedagogik tizim faoliyatini rivojlantirish strategiyalari belgilanadi. Shuning uchun, tarixiy voqea va xodisalarning ob'ektivligi, aniqligi va asoslanganlik darajasini ta'minlash bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektlari to'g'risida to'plangan axborotlar ham nafaqat ishonchli, balki yangi va asosli bo'lishi ham zarur.

Innovatsion murakkab pedagogik tizim komponentlari holati, ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlar, o'zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit hamda o'quvchi va pedagogik xodimlarning qiziqishi, moyilligi, individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlari, shuningdek, oilaviy shart-sharoiti va faoliyatlari to'g'risida axborotlar to'plash va tahlil qilish asosida ularda tarixni o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholashga qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishda maqsadli-motivlashtirish funktsiyasi muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva Sh.A. Pedagogicheskie texnologii razvitiya poznovatelnых tvorcheskix sposobnostey mladshix shkolnikov: diss. Kand. Ped. Nauk. – T.: UzNIPI. 2005.-120 s.
2. Abulxanova K.A. Strategiya jizni. – M.: Мысl, 1991. – 299s. 13.
3. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – M.: MGU, 1988. – 415s.
4. Xakimova Dildora Mashrabjonovna umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarga refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish VA boshqarish 13.00.07 –Ta'lim menejmenti (pedagogika fanlari) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.

DEBATE TECHNOLOGY AS AN INTERACTIVE FORM OF TEARNING IN ENGLISH CLASSES

Ibragimova Hilola Bahodirjon Qizi
Scientific Supervisor
Teacher of Termez state pedagogical institue

To'lqinova Maftuna Hasan qizi
Termez state pedagogical institute,2nd year student

Annotatsiya. Ushbu maqola debat texnologiyasini ingliz tili darslarida o'qitishning interfaol shakli sifatida tasvirlaydi. Debat texnologiyasi til uchun ajoyib faoliyatdir, chunki u talabalarni turli kognitiv va lingvistik usullar bilan jalb qiladi. Ushbu maqolada EFL, muloqot, ko'nikmalar , sinfdagi bahslar debat texnologiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, debat texnologiyasini ingliz tili darslarida tashkil qilish va uning tarkibiy qismlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Debat texnologiyasi, sinfxonada o'tkaziladigan debatlar,til ko'nikmalar, muloqot, diskurs.

Abstract. This article describes debates technology as an interactive form of teaching in English classes. Debate is an effective activity for language learners because it engages students in a variety of cognitive and linguistic ways. This article gives information about EFL, communication , skills, classroom debates, debate method . In addition , it analyzes the examples of forming debate.

Key words: debate technology, classroom debates, language skills , EFL, communication, discourse.

Аннотация. В данной статье описывается технология дебатов как интерактивная форма обучения на уроках английского языка. Технология дебатов — отличная языковая деятельность, потому что она вовлекает студентов в различные познавательные и языковые способы. В этой статье представлена информация об английском языке, общении, навыках, технологии дебатов в классе. Кроме того, также представлена информация об организации технологии дебатов на занятиях по английскому языку и ее составляющих.

Ключевые слова: технология дебатов, дебаты в классе, языковые навыки, английский язык как английский, коммуникация, дискурс.

It is clear that the simple transfer of knowledge or the development of individual intellectual skills should not be predominant. The most appropriate from the point of view of the development of civic competencies are active and interactive methods that involve the interaction and cooperation of all participants in the educational process in solving educational and practical problems.

The use of active and interactive technologies in the lessons of the English language increases interest in the subjects which are being studied, helps to

improve the quality of education, and allows pupils to use various sources of information.

When using an interactive strategy, the role of the teacher changes dramatically; he/she ceases to be central, defines the general direction, controls the time and order of fulfillment of work plans, helps in case of serious difficulties. At the same time, pupils need to jointly solve assigned tasks, overcome conflicts, and find common ground. It is also essential for interactive methods that there is interdependence between group tasks, and the results of their work complement each other. One of the most effective forms of implementing an interactive strategy is the Debate technology. Turning to debate technology ,debating is a practice that inspires learners to open pupil's mouth get into discussion , defend their own position place counter arguments and also conduct research related issues. Debate technology can be practiced in EFL classes , English language centers, debating clubs or other formal and informal settings where teaching –learning of English language is concerned.

What is a debate technology? Debate is a process that involves formal discourse on a particular topic, often including a moderator and an audience. In a debate, arguments are put forward for common opposing viewpoints. Debates have historically occurred in public meetings, academic institutions, debate halls, coffeehouse, competitions, and legislative assemblies.[1, pp.603]

According to the doctor of pedagogical sciences E.O. Galitsky, debate is a form of communicative training, a way of organizing schoolchildren in educational work, which allows you to train independent work skills with literature and other sources of information, develops the ability to conduct a discussion and defends his/her own point of view, taking into account the fact that the opposite position also has a right to exist. [2, pp.70]

